

Kuz tuhfalari



Kuzda bog'larda sersuv, shirin va mazali mevalar pishib yetiladi. Ular o'zining yorqin ranglari bilan ko'zlarni quvontiradi. Boy vitaminlari bilan tanamizni to'yintiradi. Mevalar **rangi**, **shakli** va **o'lchamiga** ko'ra turli-tuman bo'ladi.




Diqqat bilan qarang va qadam-baqadam **nok** rasmini chizing.


Rasm chizish bosqichlari:

1. **Ikkita aylana** chizing, bunda yuqoridagisi biroz kichikroq bo'lsin. Shakl yaxlit chiqishi uchun ular bir-birining ustiga biroz chiqib tursin.
2. Aylanalarni **tekis chiziqlar** bilan **tutashtiring**. Unga band va barg qo'shing. Shakl ichidagi ortiqcha chiziqlarni o'chiring.
3. Nokni sariq rangga **bo'yang**, fon va nok soyasini qo'shing.


Nok – sariq, och yashil, yonlari sal qizg'ish rangli sersuv, shirin meva.



1



2



3



4

